

BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXODIAGNOSTIKASI FANI BO‘YICHA
(I-semestr)
YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy maqsadi.
2. Bolalar psixologiyasining nazariy vazifalaridan uchtasini ayting.
3. Bolalar psixologiyasi qaysi fanlar bilan chambarchas bog‘liq
4. Pedagogika va bolalar psixologiyasi o‘rtasidagi asosiy farq nima?
5. O‘rta Osiyo allomalaridan qaysi olimlarning qarashlari bolalar psixologiyasi rivojiga ta’sir ko‘rsatgan?
6. Psixologik rivojlanishning biologik konsepsiyasi qanday mazmunga ega?
7. Sotsiogenetik (sotsiologik) konsepsiya inson psixikasining rivojlanishini qanday omillar bilan tushuntiradi?
8. Psixoanalitik nazariyalarga ko‘ra bolaning dastlabki yillaridagi tajribalar shaxs rivojlanishida qanday rol o‘ynaydi?
9. Ortogenetik tamoyilga ko‘ra bola psixik rivojlanishi qanday bosqichlarda kechadi?
10. Shaxs psixologiyasi rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy ichki va tashqi omillar nimalardan iborat?
11. Temperamentning shaxs shakllanishidagi o‘rni va uning tug‘maligi qanday izohlanadi?
12. Faoliyatning shaxs rivojlanishidagi o‘rni nima va nega u yetakchi omil hisoblanadi?
13. Ijtimoiy muhit va tarbiyaning bola psixik rivojlanishiga ta’siri nimada namoyon bo‘ladi?
14. Eksperiment nima va uning turlari qanday?
15. A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, faoliyat va motiv o‘rtasidagi munosabat qanday izohlanadi?
16. “Yetakchi faoliyat” tushunchasi nima va maktabgacha yoshdagi bolalarda bu qanday namoyon bo‘ladi?
17. Faoliyatning darajalari qaysilar va har bir daraja qanday xarakterga ega?
18. Bolaning psixik rivojlanishida o‘yin faoliyati qanday ahamiyatga ega?
19. Mehnat faoliyati bolaning shaxs sifatida shakllanishida qanday rol o‘ynaydi va K.D. Ushinskiy bu haqda nima fikr bildirgan?
20. Homilaning bosh miyaning rivojlanishi qaysi haftalarda muhim o‘zgarishlarni boshdan kechiradi?
21. Prenatal davrda homilaning hayotchanlik davri qaysi bosqichga to‘g‘ri keladi va nima bilan belgilanadi?
22. Ilk yoshdagi bolaning psixik rivojlanishi qaysi faoliyatlar orqali shakllanadi va o‘sadi?
23. Bolaning jismoniy rivojlanishini baholashda tana vazni, tana uzunligi, bosh va ko‘krak aylanasi qanday rol o‘ynaydi?
24. Ilk yoshdagi bolaning qo‘l harakatlari va manipulyatsiya qobiliyatlari qanday bosqichlarda rivojlanadi.
25. Ilk yoshdagi bolaning nerv tizimi, shartli reflekslar va shartli tormozlanish qanday rivojlanadi?
26. Go‘daklik davrida bolaning jismoniy rivojlanishi qanday kechadi va harakat ko‘nikmalari qanday bosqichlarda paydo bo‘ladi?
27. Go‘daklik davrida bolaning psixologik xususiyatlari va hissiy rivojlanishi qanday namoyon bo‘ladi?
28. Bolada nutq rivojlanishi qanday bosqichlardan iborat va nutqning shakllanishiga nima ta’sir qiladi?
29. Go‘daklik davrida sensomotor rivojlanish qanday sodir bo‘ladi va vizual-harakat koordinatsiyasi qanday shakllanadi?

30. Go‘daklik davrida psixodiagnostika qanday usullar orqali amalga oshiriladi va bolaning aqliy rivojlanishi qanday baholanadi?
31. Maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyoti va faoliyati qanday psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladi?
32. Maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasining rivojlanishida qanday jarayonlar muhim rol o‘ynaydi?
33. Bog‘cha yoshidagi bolalarda ehtiyoj va qiziqishlar psixik rivojlanishga qanday ta’sir qiladi?
34. Bog‘cha muhiti bolalarning psixik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga qanday hissa qo‘shadi?
35. Sezgi organlari va analizatorlar tizimining uch qismi qanday va ularning vazifalari nimadan iborat?
36. Bog‘cha yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari qanday farqlanadi va ularni rivojlantirishda o‘yinning roli nima?
37. Bolalarda diqqatning kuchi va barqarorligi qanday namoyon bo‘ladi?
38. Diqqatning ko‘lami va bo‘linuvchanligi maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday rivojlanadi.
39. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotiraning asosiy xususiyatlari qanday namoyon bo‘ladi?
40. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning ijtimoiylashuv mexanizmi qanday ishlaydi va bola nutq orqali jamiyatga qanday moslashadi?
41. Bolalarning nutqini rivojlantirishda leksik, fonetik, grammatik va bog‘lanishli nutq yo‘nalishlari qanday qo‘llaniladi?
42. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning rivojlanish bosqichlari qaysilar va ularning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
43. J. Piaje nazariyasiga ko‘ra, preoperatsion bosqichda bolalarning tafakkuri qanday xususiyatlarga ega?
44. L. S. Vigotskiy nazariyasida Yaqin rivojlanish zonasi (YAQ) nima va uning bolalar tafakkuri rivojlanishidagi roli qanday?
45. Bog‘cha yoshidagi bolalarda tafakkur jarayonida savollar berishning ahamiyati nimada va tarbiyachi bu jarayonda qanday yordam berishi kerak?
46. Ko‘rgazmali-amaliy, ko‘rgazmali-obrazli va mantiqiy (abstrakt) fikrlash turlari qaysi yosh davrlariga mos keladi va ularni rivojlantirishning asosiy metodlari qanday?
47. Bolaning shaxsiy tajribasi tasavvur rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
48. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tasavvurni rivojlantirishning asosiy usullari
49. Bolalarda tasavvur rivojlanishidagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari nimalardan iborat?
50. 1–3 yoshdagi bolaning mustaqil harakat va muloqotga kirishish xususiyatlari qanday rivojlanadi?